XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2024 - yil 2 - fevral VI-64-17-8-108-K/24 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshtilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshitilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil erkin qoldiq mablag‘lari **3 808 000 000** so‘mni tashkil etganligi hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasida yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hisoboti tasdiqlansin.

3.Tuman mahalliy budjetining 2024-yil erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son

qarori va 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409 son qaroriga muvofiq jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 30 foizi 1 142 400 000 so‘m mablag‘ tuman hokimligi huzurida ochilgan "Tashabbusli budjet" jamg‘armasiga;

-“Yoshlar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 300 000 000 so‘m;

-tuman hokimiyatining ma’muriy binosini qo‘riqlash xizmatiga 100 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga mahallalardagi hokim yordamchilarini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlash uchun 138 500 000 so‘m;

- tuman hokimligiga mahallalardagi xotin-qizlar faolini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlash uchun 123 000 000 so‘m;

-Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limiga mahallalardagi yoshlar yetakchilarini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlash uchun 172 800 000 so‘m;

-tuman hokimiyatiga "E-qaror" platformasidan foydalanish uchun 18 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga hokimlikning xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i olish uchun 25 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga tuman hokimiyati hujjatlarini saqlab kelayotgani uchun tuman arxividan yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun 30 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga hokimlikning xizmat avtomashinalariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun 90 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga internet xizmati uchun 40 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimiyati mehmonxonasiga zamonaviy isitish tizimini o‘rnatish uchun 90 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimiyati binosini va majlislar zaliga yangi zamonaviy isitish tizimini o‘rnatish uchun 470 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga tumandagi "Madaniyat" mahallasi ma’muriy binosiga tovar va moddiy zaxiralar sotib olish uchun 20 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimligi xizmat avtomashinalarining sug‘urta

xizmati uchun 10 000 000 so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi ichki ko‘chalarni toshlash dizel yoqilg‘isi olish uchun 87 000 000 so‘m;

- tuman hokimligi apparati (tuman hokimi va o‘rinbosarlari bundan mustasno) va texnik xodimlari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlari va tuman Soliq inspeksiyasi rahbariga bir oylik ish haqi miqdorida qo‘shimcha ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 185 000 000 so‘m;

- xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2017- yil 25-dekabrdagi KQ-278-3-sonli qarori ijrosi bo‘yicha xalq deputatlari tuman kengashi deputatlarini ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish uchun 7 000 000 so‘m;

- xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2023-yil 3-avgustdagi 01-22-6/1702-sonli xati ijrosi bo‘yicha Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyatiga 2 dona kompyuter jamlanmalari olish uchun 20 000 000 so‘m;

- xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi sifatini oshirish hamda soha tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-sonli qarorining ijrosini ta’minlash yuzasidan “UNICOM-SOFT” MChJ Xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashiga xizmati uchun 5 000 000 so‘m;

-xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi kotibiyati xodimlariga yanvar, fevral, mart oylari uchun oylik maoshiga qo‘shimcha oylik maosh hisobida ustama to‘lovlarini to‘lash maqsadida ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 36 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-mart PF-45-son Farmoniga asosan tuman hokimligi Axborot xizmati bosh mutaxassisi va texnik xodim shtat birligining 2023-yil dekabr oyi va 2024-yil olti oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 52 880 000 so‘m;

- tuman hokimligiga "Viloyat suvta’minot" MChJga tumandagi “Obshir” mahallasidagi olib borilgan obodonlashtirish ishlaridan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun 30 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimining 2023-yil 14-noyabrdagi 136-8-108-

F/23-sonli farmoyishiga asosan tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Oripov Fozil Ashurovichga bir oylik ish haqi miqdorida moddiy yordam berish uchun 4 271 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimining 2023-yil 1-noyabrdagi 172-8-108-F/23-sonli farmoyishiga asosan tuman shtabi kotibi vazifasini bajaruvchi Saparov Zokir Ziyayevichni moddiy rag‘batlantirish uchun 10 000 000 so‘m mablag‘lar ajratilsin.

4.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abdurayimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Saidaxmedov)larga;

Tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.O.Maxmatrayemov**